

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

**Keldiyeva Shahnoza Shuhratovna**

Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi:

**Abdumannanova Marjona va No'monjonova Muslima**

Andijon davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lism" fakulteti "Logopediya" yo'nalishi 1- bosqich 101-guruh talabalar

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida ta'lism sohasida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ta'lism tizimining zamonaviy talablar asosida rivojlanishi, yosh avlodning zamonaviy bilim va malakalarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lism islohoti, yangi ta'lism siyosati, ta'lism sifatini oshirish, bepul ta'lism.

Aholi turmush farovonligi darajasi mamlakatning faqat iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan emas, balki ijtimoiy sohalar taraqqiyoti darajasi bilan ham ifodalanadi. Aynan ijtimoiy sohada davlatning insonparvarlik darajasi har tomonlama yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy soha taraqqiyotining qay darajadaligi ma'lum jihatdan mamlakatdagi siyosiy va psixologik muhitni, aholining umumiyligi kayfiyatini belgilaydi. Ijtimoiy sohalarning o'sishi xududlarning umumiyligi iqtisodiy taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladi. Sovetlar tuzumi yillarida partiya yakkaxokimlikning vujudga kelishiga jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida o'z mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi.

Ayniqsa, bu kishilar ongini o'zgartirishda muhim olim bo'lgan ta'limga, ilmda va madaniyatda jiddiy tus oldi. Xalqning ma'rifatga, fanga va milliy madaniyatga bo'lgan intilishi xukmron kuchlar tomonidan uzoqni ko'zlamay va yaxshi o'ylamay olib borgan siyosatlari natijasida siyosiy manfaatlar yo'liga burildi. Yangi ziyoli kadrlarni shakallantirish, eski mavjud ziyolilarni yo'q qilish ana shu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi.

Savodxonlik darajasini o'sishi byurokratik boshqaruv tizimini mustahkamlanib borishi, texnika taraqqiyoti tomon yurish va ilmiy muassasalarining tashkil topish jarayonlari ular ustidan qattiq mafkuraviy nazoratning o'rnatilishi bilan hamohang ravishda yuz berdi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida islohotlarni boshidan kechirgan va natijasini ko'rsata olgan sohalardan biri ta'lism tizimidir.

O'zbekiston ilm-fanga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Zamonning tezkor taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi fan sohalari bo'yicha tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, respublika oliy ta'lism muassasalaridagi professor-o'qituvchilar faoliyatining salmoqli qismi ilmiy tadqiqotlarga qaratilganligi o'z samarasini bera boshladi. "Fan, ta'lism va ishlab chiqarish integratsiyasi" O'zbekistonda ilmu-fan rivojlanishiga bosh maqsadlardan biri etib belgilandi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ta'lism sohasidagi islohotlar ta'lism sifatini oshirish, o'quvchilarning global darajada raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash va davlatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mamlakatning ta'lism tizimini yanada rivojlantirish uchun muhim poydevor yaratmoqda.

**Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I. "Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanalaylik", O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, Toshkent, "O'zbekiston". 2012, 72-b.

2. Mirziyoev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent, "O'zbekiston", 2019.

Siddiqov R.B. O'zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalar (ilmiy to'plam), "Noshir", Toshkent, 2012.